

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

“URGANCH INNOVATION UNIVERSITY”  
NODAVLAT TA'LIM MUASSASASI



“TASDIQLAYMAN”  
Urganch innovation university”  
rektor \_\_\_\_\_ M.Ishmuratov

*03 - yanvar* 2025-yil

ILMIY-TADQIQOT ISHLARINING  
REJASI

Urganch – 2025

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-iyuldagi “Oliy va professional ta’lim tashkilotlarida ta’lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5203-sonli qarori, 2023-yil 20-apreldagi “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-128-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmonida hamda, 29.10.2019-yildagi O‘RQ-576-sonli O‘zbekiston Respublikasining Qonunida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, universitetning ilmiy-tadqiqot faoliyati amalga oshirilmoqda.

Natijada, 2024-yil sentabr oyidan yil yakunlari bo‘yicha 3 nafar professor-o‘qituvchi Turon fanlar akademiyasi akademigi ilmiy unvonini oldi, 2 nafar professor-o‘qituvchi dotsent ilmiy unvoni oldi, 2 nafar professor-o‘qituvchi falsafa fanlari doktori(PhD) ilmiy darajasiga ega bo‘ldi.

“**Ijtimoiy-gumanitar fanlar**” kafedrasida professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘tgan davr mobaynida 1 ta Scopus bazasida maqola, 7 ta OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnalda, 9 ta xalqaro jurnallarda, shuningdek, 5 ta xalqaro va respublika konferensiya to‘plamlarida maqola va tezislar e‘lon qilindi.

“**O‘zbek va xorijiy filologiya**” kafedrasida professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘tgan davr mobaynida 1 ta Scopus bazasida maqola, 8 ta OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnalda, 5 ta xalqaro jurnallarda, shuningdek, 6 ta xalqaro va respublika konferensiya to‘plamlarida maqola va tezislar e‘lon qilindi.

“**Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim**” kafedrasida professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘tgan davr mobaynida 17 ta OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnalda, shuningdek, 8 ta xalqaro konferensiyalarda, 5 ta respublika konferensiya to‘plamlarida maqola va tezislar e‘lon qilindi.

Bundan tashqari, Urganch innovatsion universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti Filologiya va tillarni o‘qitish: O‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi **Karimova Mahliyo Atobayevna** universitet ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori **Masharipov Mansurbek Masharipovich** boshchiligida “**O‘zbek tilida harakat tarzi leksemalari semantikasi va leksikografik talqini**” mavzusida ilmiy ish olib borib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-dekabr 464-sonli buyrug‘iga asosan 2024/2025-o‘quv yili uchun **Islom Karimov nomli davlat stipendiyasiga** sazovor bo‘ldi.

Shuningdek, O‘zbek va xorijiy filologiya kafedrasida mudiri, dotsent **Olloyorov Quvondiq Madiyorovich** ilmiy rahbarligida Urganch davlat universiteti talabasi **Davlatnazarov Davlatnazar Ro‘zmatboy o‘g‘li Navoiy nomli davlat stipendiyasiga** sazovor bo‘ldi.

Kafedralar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari universitet kengashining 2024-yil dekabrda majlisida muhokama qilinib, 2025-yilda bajarilishi rejalashtirilgan ITI faoliyatining asosiy yoʻnalishlari belgilab olindi. Jumladan:

mamlakatimizdagi tildan amaliy foydalanish muammolarini oʻrganish – aniqlash, tahlil qilish, muhokamaga qoʻyish va yechimlarini tavsiya etish;

Taʼlimga oid elektron platformalarining takomillashtirib borilishini taʼminlash;

ona tili va adabiyot fanlarini oʻqitishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish;

filologiya va tillarni oʻqitish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy-innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlantirilishiga erishish;

kafedralarning ilmiy salohiyatini oshirib borish, professor-oʻqituvchilarning xalqaro nashrlardagi nashr faolligini oshirish va boshqa ilmiy-tadqiqot faoliyati boʻyicha dolzarb vazifalarni belgilash.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun universitetning 2025-yilga moʻljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasi ishlab chiqilgan. Mazkur reja asosda dolzarb ilmiy muammolar ustida xorijlik mutaxassislar bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini amaliyotga joriy etilishini taʼminlash yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi koʻzda tutilgan.

## 2025-YILGA MO‘LJALLANGAN ILMIY-TADQIQOT DASTURI

T/r	Amaliy chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ullar
<b>I. Normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan sohaga oid topshiriqlarning bajarilishi</b>				
1.1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Davlat dasturlari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Hay’at qarorlari, buyruqlari va modermomalari, universitet Kengashlari qarorlarida belgilangan ilmiy faoliyatni takomillashtirishga oid vazifalar ijrosini ta’minlash	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yuqori turuvchi tashkilotlardan kelayotgan hujjatlarni tegishli tartibda rasmiylashtirish.</li> <li>2. Ilmiy-pedagogik faoliyatga doir topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash.</li> <li>3. Belgilangan muddatlarda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish.</li> </ol>	Belgilangan muddatlarda	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi
1.2.	“O‘ZBEKISTON – 2030” Strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, universitetda bajarilayotgan ilmiy ishlanmalarning samaradorligini oshirish	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ilmiy ishlanmalarning bajarilishi to‘g‘risida yosh tadqiqotchilarning bilim hamda ko‘nikmalarini oshirish.</li> <li>2. Ilmiy tadqiqot ishlarining bajarish samaradorligi va “Ustoz-shogird” an’anasining rivoji to‘g‘risida.</li> <li>3. Universitetda ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni yuqori saviyaga ko‘tarish</li> </ol>	Yil davomida	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi, kafedra mudirlari
1.3.	Yuqori tashkilotlar va rahbariyatdan kelgan xatlar va qaror-topshiriqlarning o‘z vaqtida ijrosini ta’minlash	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Universitet ijro tizimiga doimo rioya qilish</li> </ol>	Yil davomida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, barcha bo‘lim boshliqlari

1.4.	Universitet Kengashi muhokamasiga ilmiy ishlar va innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishga oid masalalarni kiritish	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sohaga oid masalalar yuzasidan takliflar tayyorlash va kun tartibiga kiritish</li> <li>2. Muhokama qilinadigan masalalar yuzasidan tahliliy ma'lumotlar tayyorlash.</li> <li>3. Universitet kengashida ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash.</li> </ol>	2025-yil, mart, iyun, avgust, dekabr oylarida	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi, kafedra mudirlari
------	--	---	---	--

## II. Ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish

2.1.	Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarni tashkil etish	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Universitetda o'tkaziladigan ilmiy-amaliy anjumanlarning yillik va istiqbolli rejalarini ishlab chiqish hamda vazirlikka taqdim etish.</li> <li>2. Ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga muvofiq xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiyalarga tayyorgarlik ko'rish hamda yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlash.</li> <li>3. Ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkillashtirish va samaradorligini oshirish borasida amalga oshirilgan ishlarni tahlil etish, kelgusidagi vazifalarni belgilash.</li> </ol>	vazirlik buyrug'i bilan tasdiqlangan jadvalga muvofiq	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi, kafedra mudirlari
------	--	---	---	--

2.2.	Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy seminarlarni tashkil etish	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kafedralar qoshida tashkil etilgan respublika va xalqaro miqyosdagi nazariy-metodologik seminarlarda sohaga oid dolzab muammolarni muhokama qilish</li> <li>2. Seminarlarga xorijlik mutaxassislarni jalb qilish.</li> <li>3. Kafedralarda bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishda</li> </ol>	nazariy-metodologik seminarlar rejasiga muvofiq	Xalqaro ta'lim va hamkorlik bo'limi, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi,
------	---	---	---	---

		xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.		
2.3.	Kafedralar qoshida (ilmiy markazlar tashkil qilish) bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini nazorat qilish va monitoringini olib borish	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kafedralar qoshidagi (ilmiy markazlar tashkil qilish) yillik ilmiy tadqiqot rejalarini ko‘rib chiqish va tasdiqlash.</li> <li>2. Reja asosida kafedralarda olib borilayotgan ilmiy faoliyatni nazorat qilish.</li> <li>3. Reja asosida bajarilgan ishlarni monitoring qilish, Universitet Kengashida muhokama qilish</li> <li>4. Universitet kafedralari qoshida ilmiy-innovatsion markazlarni tashkillashda amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha tegishli tahlil ishlarini o‘tkazish hamda zarur hollarda universitet rahbariyati e‘tiboriga yetkazish.</li> </ol>	<p>2025-yil aprel,</p> <p>2025-yil 4-chorak</p>	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi, kafedra mudirlari
2.4.	Universitetdagi ilmiy va ilmiy-amaliy seminarlar faoliyatining samaradorligini monitoring qilib borish	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kafedralar kesimida ilmiy va ilmiy-amaliy seminarlar rejasini tasdiqlash;</li> <li>2. O‘tkazilayotgan ilmiy, ilmiy-amaliy seminarlarni doimiy monitoring olib borish hamda ishlarni tahlil qilish;</li> <li>3. Kafedra seminarlari va boshqa seminarlarda ma’ruza qilganlik hisobotlarini tahlil qilish</li> </ol>	Yil davomida	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi, kafedra mudirlari
2.5.	Kafedralarning O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Ma‘mun akademiyasi, ilmiy tadqiqot markazlari hamda yetakchi oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlikdagi faoliyatini tahlil etish	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kafedralarning hamkorlik shartnomalarini o‘rganish, yangi shartnomalar va kelishuvlarga erishi.</li> <li>2. Kafedralarning bu boradagi faoliyatini tahlil etish, hamkorlikdagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar o‘tkazish.</li> <li>3. Hamkorlikdagi ilmiy tadqiqot ishlari</li> </ol>	2025-yil, fevral, aprel, iyun	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi, kafedra mudirlari

		yuzasidan ilmiy rahbar xulosalari bilan tanishish		
2.6.	Yosh olimlarning innovatsion tadqiqotlar davlat ilmiy-nazariy dasturlari doirasidagi loyihalar tanlovida professor-o'qituvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Loyihalar tanlovi e'lonlari muntazam kuzatib borish.</li> <li>2. Dolzarb muammolar yuzasidan fundamental, amaliy loyihalarda ishtirok qilish.</li> <li>3. Universitetda bajarilayotgan loyihalar hisobotlarini qabul qilish</li> </ol>	Yil davomida	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi, kafedra mudirlari
2.7.	Yosh olimlarning turli tanlov(loyiha)larda ishtirokini ta'minlash	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Turli stajirovkalar uchun tanlovlarni yetkazish.</li> <li>2. Turli xil davlat hamda nomdor stipendiyalar uchun tanlov e'lon qilinganligi talabalar va magistrantlarga yetkazish.</li> <li>3. Innovatsion g'oyalar haftaligi - "InnoWeek"da ishtirok etish</li> </ol>	loyiha yakuni bo'yicha	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi, kafedralar mudirlari
2.8.	Professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilarning nashr faolligini oshirish	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. "Scopus", "Science Direct", "Web of Science" va boshqa xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasiga kiritilgan filologik, pedagogik, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi jurnallar bazasini shakllantirish.</li> <li>2. Pedagog-xodimlar va doktorantlar uchun ushbu jurnallar talablariga mos ilmiy maqola yozish bo'yicha treninglar tashkil etish.</li> <li>3. Har bir tadqiqotchi va pedagoglarning nashr faolligini kuzatib borish.</li> </ol>	2025-yil, yanvar – dekabr	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi, kafedra mudirlari

2.9.	Universitetning Ilmiy-texnikaviy Kengashi faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirish	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Universitetning ITK kun tartibiga dolzarb masalalar muhokamasini kiritish.</li> <li>2. Tadqiqotchilarning dissertatsiya mavzusi, monografiya va risolalarni nashrga tavsiya etish hamda ilmiy loyihalarning hisobotlarini tahlil qilib borish</li> <li>3. ITK qarorlarini Universitet Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etish</li> </ol>	Har chorakda	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Ilmiy-texnikaviy Kengash raisi, ITK kotibi
2.10.	Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tahsil olayotgan tadqiqotchi professor-o'qituvchilarni ilmiy faoliyati monitoringini o'tkazish	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Monitoring o'tkazish bo'yicha universitet rektori buyrug'ini tayyorlash.</li> <li>2. Buyruq asosida monitoring kunlarini e'lon qilish.</li> <li>3. Doktorantura, tayanch doktorantura talabalari va mustaqil izlanuvchilar ilmiy faoliyati monitoring asosida tahlil qilib borish.</li> </ol>	2025-yil, har chorakda oxirgi oying uchinchi haftasi	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi, Kafedra mudirlari, mas'ullar
2.13.	Universitet magistrantlari va talabalarini ilmiy faoliyatga yo'naltirish va ularda innovatsion fikrlashni shakllantirish	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Magistrlar va talabalarni ilmiy faoliyatga yo'naltirish bo'yicha seminar-treninglar tashkil qilish.</li> <li>2. Magistrlar va talabalarni innovatsion fikrlashga yo'naltiradigan o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish.</li> </ol>	2025-yil, yanvar, mart, iyun	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
2.14.	Universitet professor-o'qituvchilari, yosh olimlar va tadqiqotchilarini xorijiy universitetlar va ilmiy markazlarga qisqa muddatli stajirovkaga yuborish choralari	1. "El-yurt umidi" jamg'armasi va boshqa tegishli vazirliklar hamda hamkor tashkilotlar tomonidan berib boriladigan e'lonlarni muntazam professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va	2025-yil, aprel-may	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi, Xalqaro



	ko'rish	<p>tadqiqotchilargai yetkazib borish va tanlovlarda ishtirok etishga jalb qilish.</p> <p>2. Xorijiy universitetlar va ilmiy markazlarga qisqa muddatli stajirovkaga yuborish bo'yicha hamkorlik kelishuvlariga erishish.</p> <p>3. Yosh olimlar va tadqiqotchilarni qisqa muddatli xorijiy stajirovkaga yuborish.</p>	(kelishuv asosida)	ta'lim va hamkorlik bo'limi
2.15.	Universitetning milliy va xalqaro reytingini aniqlash bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish	<p>1. Xalqaro reyting ko'rsatkichlari bo'yicha universitetning navbatdagi bosqichda maqsadli ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha chora tadbirlarni ishlab chiqish.</p> <p>2. Universitetning xalqaro reytinglarga oid maqsadlari, salohiyati va imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish va tasdiqlangan takliflar asosida ishlarni tashkil qilish.</p> <p>3. Tayyorlangan ma'lumotlarni Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limiga taqdim etish.</p>	2025-yil, belgilangan muddatlarda	Xalqaro ta'lim va hamkorlik bo'limi, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
<b>III. Professor-o'qituvchilar va iqtidorli yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish</b>				
3.1.	“_____” respublika miqiyosida talabalarining ilmiy-amaliy anjumanini o'tkazish	<p>1. Konferensiya axborot xatini tayyorlash va targ'ibotini olib borish.</p> <p>2. Maqolalar to'plash va tahrir qilish.</p> <p>3. To'plam tayyorlash va elektron chop etish.</p>	2025-yil, aprel	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi, fakultet dekani, kafedra mudirlari

3.2.	Iqtidorli yoshlarni ilmiy tadqiqotlarga jalb etish, ularga ilmiy-amaliy yordam ko'rsatishni takomillashtirish.	<p>1. Universitetda talabalar o'rtasida "Eng yaxshi innovatsion loyiha" Startap loyihalar tanlovini tashkil qilish va g'oliblarni aniqlash;</p> <p>2. Iqtidorli talabalarni turli tanlov va olimpiadalarga tayyorlashni maqsadli amalga oshirish;</p> <p>3. Har yili aprel va noyabr oylarida bo'lib o'tadigan an'anaviy talabalar konferensiyasiga maqola tayyorlashda talabalarga ko'maklashish.</p>	<p>2025-yil, 1 chorak</p> <p>2025-yil, sentabr, noyabr</p>	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi, kafedralar
3.3.	Professor-o'qituvchilar hamda iqtidorli talabalarni ilmiy-amaliy va innovatsion loyihalarda ishtirokini ta'minlash	<p>1. Iqtidorli talabalarni aniqlash, ularning ilmiy va yaratuvchanlik qobiliyatlarini o'rganish;</p> <p>2. Iqtidorli talabalarni yetakchi olimlarga shogird sifatida biriktirish;</p> <p>3. Iqtidorli talabalar saralab olish, respublika bosqichiga tavsiya qilish;</p> <p>4. Professor-o'qituvchilarning innovatsion loyihalaridagi ishtirokini ta'minlash</p>	<p>2025-yil, yanvar</p> <p>2025-yil, sentabr- dekabr</p>	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi, kafedralar mudirlari
3.4.	Universitetdagi ilmiy to'garaklar faoliyati samaradorligini oshirish, talabalar qamrovini kengaytirish	<p>1. Barcha kafedralar va fakultetdagi ilmiy to'garaklarning yillik ish rejasi shakllantirish va tasdiqlash.</p> <p>2. To'garaklarga iqtidorli talabalarni jalb qilish va dolzarb muammoli masalalarni muhokama qilish.</p> <p>2. To'garaklarda ilmiy seminarlar, davra suhbatlarini tashkil qilish, to'garak a'zolarining ilmiy maqolalarini tayyorlash va nashr qilishida ko'maklashish.</p>	2025-yil, fevral-iyul	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi, Fakultet dekani, kafedralar mudirlari
3.5.	Magistrlarning ilmiy-tadqiqot	1. Universitetni magistrlarida ilmiy ijodiy	2025-yil	Ilmiy tadqiqotlar,

	ishlarini davom ettirish maqsadida oliy ta'limdan keyingi ta'limga qamrovini oshirish	faollikni oshirish; 2. Ilmiy tadqiqot ishlarini oliy ta'limdan keyingi ta'limda davom ettirishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish; 3. Magistrning oliy ta'limdan keyingi ta'limda ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirishiga erishishlarini nazorat qilib borish	may-iyun  2025-yil oktabr- noyabr	innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi, kafedralar mudirlari
3.6.	Magistrlarni, shuningdek, talabalarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi, nomdor davlat stipendiyalari hamda atoqli olimlar nomiga ta'sis etilgan stipendiyalar tanlovlariga tayyorlash	1. 2025/2026-o'quv yili uchun Davlat stipendiyalari tanlovlarida qatnashuvchi talabalar hujjatlarini ko'rib chiqish; 2. Davlat stipendiyalari tanlovlariga munosib nomzodlar hujjatlarini saralash; 3. Davlat stipendiyalari tanlovlarining munosib nomzodlarning ishtirokni ta'minlash.	2025-yil, 2-chorak	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi, kafedralar mudirlari
3.7.	Universitetda iqtidorli talabalar bilan ilmiy-ijodiy ishlar bo'yicha uchrashuvlar tashkil qilish	1. Atoqli olimlar bilan uchrashuvlar tashkil qilish; 2. Ilmiy maqolalar yozish bo'yicha master-klasslar o'tkazish; 3. O'zbekistondagi tarixiy obidalar va ziyoratgohlarga sayohatlar tashkil qilish.	2025-yil, ferval-iyul	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekani, kafedra mudirlari
3.8.	Iqtidorli talabalarni yozgi ta'til vaqtini mazmunli tashkil etish	1. O'zbekistondagi tarixiy joylar va ziyoratgohlarga sayohatlar tashkil etish; 2. Ilmiy maqolar yozish bo'yicha "Ustoz-shogird" an'anasini yo'lga qo'yish; 3. Universitet ijtimoiy tarmoqlarida iqtidorli talabalar bilan uchrashuvlarni yoritib borish.	2025-yil, iyul-avgust	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekani, kafedra mudirlari, matbuot kotibi
3.9	Fundamental, amaliy hamda yosh olimlar innovatsion tadqiqotlar davlat	4. Loyihalar tanlovi e'lonlari muntazam kuzatib borish.	e'lon berilgan	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va

	ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi loyihalar tanlovida professor-o'qituvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash	5. Dolzarb muammolar yuzasidan fundamental, innovatsion, amaliy loyihalar tayyorlash. 6. Loyihalarni ekspertizadan o'tkazish va universitet kengashi qarori asosida tanlovga tavsiya etish.	muddatlarda	ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi, kafedra mudirlari
--	--	--	-------------	---

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

M.Masharipov

Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i

A.Abdullayev

Xalqaro ta'lim va hamkorlik bo'limi boshlig'i

J.Xusainov

Ijtimoiy-gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti dekani

B.Satimov

"O'zbek va xorijiy filologiya" kafedrasi mudiri

Q.Olloyorov

"Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi mudiri

Ch.Sabirova

"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi mudiri

U.Mahmudov

Matbuot kotibi

M.Karimova